

## Umumiy dunyoqarishining shakllanganligi, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatini aniqlash

T/r	Savollar
<b>Yurisprudensiya bilan dunyo bo'ylab (Xalqaro huquq)</b>	
1.	Jahon banki tashkilotlari guruhiga qaysi tashkilotlar kiradi?
2.	Xalqaro tashkilotlar huquqi manbalari deganda nimani tushunasiz?
3.	Xalqaro tashkilotlardan a'zolikdan chiqarish qachon qo'llaniladi?
4.	Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xamda Xalqaro nohukumat tashkilotlar deganda nimani tushunasiz?
5.	Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) haqida gapirib bering.
6.	BMTning konvensiyaviy organlari faoliyatini yoriting.
7.	Xalqaro tashkilotning huquq va majburiyatlari unga a'zo bo'lgan davlatlarning huquq va majburiyatlaridan farqi nimadan iborat?
8.	Fuqarolikka ega bo'lish usullari haqida ma'lumot bering.
9.	BMT Xavfsizlik kengashi haqida gapirib bering.
10.	BMT Xalqaro sudi haqida gapirib bering.
11.	Xalqaro huquqda aholi tushunchasini keltiring va kategoriyalarga tasniflang.
12.	Universal tashkilotlar deganda nimani tushunasiz?
13.	Xalqaro huquqda fuqarolikni yo'qotish shakllari qanday?

<b>14.</b>	Xalqaro huquqda “hudud” deganida nima tushiniladi va uni qanday turlarini bilasiz?
<b>15.</b>	Suverenitetni cheklash nimani anglatadi?
<b>16.</b>	Xalqaro huquqiy javobgarlik nima?
<b>17.</b>	Anklav va yarim anklavlarni ta’rifini bering.
<b>18.</b>	Xalqaro huquqiy javobgarlik sohasidagi qoniqish (satisfacsiya) nimani anglatadi?
<b>19.</b>	Kapitulyatsiya bu nima?
<b>20.</b>	“Urushda betaraflik” tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
<b>21.</b>	Xalqaro xarakterda bo‘lmagan qurolli to‘qnashuvlar nima?
<b>22.</b>	Qurolli to‘qnashuv davrida urushayotgan tomonlar hududida fuqarolik va harbiy obyektlar ajratiladi. Fuqarolik obyektlari nima?
<b>23.</b>	Fuqarolik obyektlari harbiy hujumning obyekti bo‘lmasligi kerak. Xalqaro huquq doktrinasiga muvofiq, “nizo” va “vaziyat” tushunchalari o‘rtasidagi farq nimadan iborat?
<b>24.</b>	Ad hoc va doimiy (institusional) arbitrajlar o‘rtasidagi farqni tushintirib bering.
<b>25.</b>	Xalqaro ommaviy huquqda subyekt tushunchasiga qanday ta’rif beriladi?
<b>26.</b>	Xalqaro ommaviy huquq subyektlari qanday xususiyatlarga ega?
<b>27.</b>	Xalqaro ommaviy huquqda o‘z ozodligi uchun kurashayotgan xalqlar va millatlar deganda aynan qanday xalqlar va millatlar nazarda tutiladi?
<b>28.</b>	Nima sababdan o‘z ozodligi uchun kurashayotgan xalqlar va millatlar xalqaro ommaviy huquq subyektlari qatoriga kiritilgan?
<b>29.</b>	Xalqaro ommaviy huquq birlamchi va ikkilamchi (hosilaviy) subyektlarining asosiy farqi nimada?

30.	Nima uchun xalqaro tashkilotlar xalqaro ommaviy huquq subyekti sifatida yasama xususiyatga ega?
31.	Xalqaro huquq nazariyasiga ko'ra davlatlar birlamchi subyekt sifatida qanday majburiyatlarga egalar?
32.	Xalqaro huquqda xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipi qanday xalqaro hujjatlarga aks ettirilgan?
33.	Xalqaro huquqning noan'anaviy subyektlariga kimlar kiradi? Nima uchun ular noan'anaviy subyekt deb nomalanadi?
34.	Individ xalqaro ommaviy huquq subyektimi? Individ xalqaro ommaviy huquq subyekti sifatida e'tirof etilishiga nisbatan qanday yondashuvlar mavjud?
35.	O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi qachon qabul qilingan?
36.	Konsullik faoliyatining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
37.	Konsullik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini izohlab ayting.
38.	Amaldagi qonunchilikka asosan konsullik munosabatlarini o'rnatish tartibi xususida ma'lumot bering.
39.	Konsullik muassasasining maqomi xususida nimalarni bilasiz?
40.	Konsullik muassasalarining imtiyozlari va immunitetlari haqida nimalarni bilasiz?
41.	Konsullik mansabdor shaxslarining imtiyozlari va immunitetlari xususida ma'lumot bering.
42.	Konsullikning fuqarolarga va yuridik shaxslarga taalluqli funksiyalari haqida nimalarni bilasiz?
43.	Xalqaro huquqning qanday tamoyillari bor?
44.	Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari (prinsiplari) deganda nima tushuniladi?
45.	Xalqaro gumanitar huquqiga ta'rif bering.
46.	Xalqaro huquq tamoyillari qaysi xalqaro manbalarda belgilab qo'yilgan?
47.	Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillariga qaysilar kiradi?

48.	Xalqaro huquq tamoyillari qanday shakllanadi?
49.	1975-yildagi Yevropa xavfsizlik va hamkorlik kengashining yakunlovchi hujjatida xalqaro huquqning qaysi tamoyillari o‘z aksini topgan?
50.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqaro huquqning qanday tamoyillari belgilab qo‘yilgan?
<b>Xalqaro huquqda inson huquqlari</b>	
1.	Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro billning tarkibiga qanday hujjatlar kiradi?
2.	Inson huquqlarining umumiy himoyasini ta‘minlovchi xalqaro shartnomalar jumlasiga nimalar kiradi?
3.	Inson huquqlari bo‘yicha mintaqaviy hujjatlarga nimalar kiradi?
4.	Inson huquqlari sohasida majburiy yuridik kuchga ega bo‘lgan vositalar nimalar?
5.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF–6012-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonning maqsadi nima?
6.	BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashi tarkibida nechta davlat a‘zo va ular qanday saylanadi?
7.	BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengash o‘z faoliyatini qaysi yo‘nalishda amalga oshiradi?
8.	BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashning Universal davriy tahlil protsedurasini o‘tkazish maqsadi nima?
9.	Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar boshqarmasi faoliyati nimalardan iborat?
10.	BMTning Qochoqlar ishlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi faoliyati nimalardan iborat?
11.	Inson huquqlari sohasidagi mintaqaviy xalqaro hujjatlarga qaysilar kiradi?
12.	Yevropa Kengashi doirasida umume‘tirof etilgan inson huquqlari yevropa tizimining asosiy manbalarini sanab bering.
13.	Umume‘tirof etilgan inson huquqlari amerika tizimi manbaalari haqida ma‘lumot bering.

<b>14.</b>	Afrika davlatlari qabul qilgan Afrika xartiyasi haqida gapirib bering.
<b>15.</b>	Umume'tirof etilgan inson huquqlarining islom tizimi manbalariga qaysilar kiradi:
<b>16.</b>	YXHT doirasida inson huquqlarini himoya qilish haqida gapirib bering.
<b>17.</b>	“Insoniylik mezonlari mexanizmi” mazmunini yoritib bering.
<b>18.</b>	Inson huquqlari sohasidagi mintaqaviy xalqaro hujjatlarni sanab bering
<b>19.</b>	Inson huquqlariga rioya etilishi holatini monitoring qilish jarayoni qaysi prinsiplar asosida amalga oshiriladi?
<b>20.</b>	Inson huquqlari bo'yicha xalqaro va mintaqaviy standartlarning o'zaro bog'liqligi haqida gapirib bering.
<b>21.</b>	Inson huquqlarini himoya qilish va muhofaza qilishda muhim rol o'ynovchi davlat organlari qaysi?
<b>22.</b>	Inson huquqlarini himoya qilish va muhofaza qilishda muhim rol o'ynovchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar qaysi?
<b>23.</b>	O'zbekiston Respublikasida qanday inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar mavjud?
<b>24.</b>	Inson huquqlari bo'yicha milliy markazning vazifasi nima?
<b>25.</b>	Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz inson huquqlari masalalari bo'yicha qaysi organlar bilan hamkorlik qiladi?
<b>26.</b>	Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari nimalardan iborat?
<b>27.</b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) qanday saylanadi?
<b>28.</b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tomonidan murojaatlar qanday tartibda ko'rib chiqiladi?
<b>29.</b>	“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida”gi qonunga qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olishga doir Milliy preventiv mexanizmini joriy etish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar qachon kiritildi?

30.	Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olishga doir Milliy preventiv mexanizmga asoslangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning qanday vakolati mavjud?
31.	Inson huquqlarining "uch avlodi" haqida ma'lumot bering.
32.	Inson huquqlari bo'yicha kengash doirasida qo'llaniladigan Universal davriy ko'rib chiqish protsedurasi mohiyatini tushuntiring.
33.	Inson huquqlari bo'yicha kengash doirasida qo'llaniladigan maxsus protsedurasining mohiyatini tushuntiring.
34.	Inson huquqlari bo'yicha kengash doirasida qo'llaniladigan shikoyatlar protsedurasining mohiyatini tushuntiring.
35.	BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi qanday faoliyatni amalga oshiradi?
36.	BMTning inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlari haqida nimalarni bilasiz?
37.	Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning fakultativ protokollari (bayonnoma) qanday masalalarga bag'ishlangan?
38.	BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga shikoyat topshirishda qanday talablar bajarilgan bo'lishi kerak?
39.	BMTga a'zo-davlatlar inson huquqlari bo'yicha 2 xil ma'ruza taqdim etadilar. Universal davriy kuzatuv va shartnomaviy organlarga taqdim etiladigan milliy ma'ruzalarda qanday farqlar mavjud.
40.	BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi haqida ma'lumot bering.
41.	Gender tengligi nima?
42.	Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Xalqaro konvensiyasining Fakultativ protokolida qanday tartib nazarda tutiladi?
43.	Ayollar huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro –huquqiy hujjatlar nomini keltiring.
44.	1979-yilgi Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida xalqaro konvensiyani qabul qilishdan maqsad nima edi?

45.	Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha komissiya qachon va qaysi tashkilot tomonidan ta'ris etilgan?
46.	BMTning ixtisoslashgan tashkilotlarida ayollar huquqlarini himoya qilish borasida qanday choralar amalga oshirilgan?
47.	Bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro darajadagi eng muhim hujjat qaysi?
48.	BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi asosida tashkil etilgan shartnomaviy organ va uning vazifasi haqida ma'lumot bering.
49.	BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasida bola huquqlari qanday kategoriyadagi huquqlarga bo'lingan?
50.	BMTning ixtisoslashgan muassasalaridan biri hisoblangan YUNISEFning vazifalari nimalardan iborat?
<b>Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar</b>	
1.	O'zbekiston Respublikasi sud tizimi haqida aytib bering.
2.	Odil sudlov va uning demokratik prinsiplarini tushuntirib bering.
3.	Konstitusiyaviy sudga murojaatga qo'yiladigan talablarni ayting.
4.	Konstitusiyaviy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini sanab bering.
5.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini aytib bering.
6.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlarini tushuntirib bering.
7.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi faoliyatini muhokama qiling.
8.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorini qabul qilish tartibini tushuntirib bering.
9.	Sud ishlari yuritiladigan til haqida nimalarni bilasiz?
10.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida kimlar ishtirok etishi mumkin?
11.	Harbiy sudlar tarkibini aytib bering.

<b>12.</b>	Qanday turdagi ishlar harbiy sudlar sudloviga tegishli hisoblanadi?
<b>13.</b>	Sudyalikka nomzodlarga qo‘yilgan talablarni aytib bering.
<b>14.</b>	Xalq maslahatchilariga qo‘yilgan talablarni aytib bering.
<b>15.</b>	Sudyaning vakolat muddatlar haqida ma’lumot bering.
<b>16.</b>	Sudyaning qasamyod qabul qilish tartibini aytib bering.
<b>17.</b>	Sudyalik lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi va uni uzaytirish tartibini aytib bering.
<b>18.</b>	Sudyaning vakolatlarini to‘xtatishga sabab bo‘ladigan holatlarini aytib bering.
<b>19.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga zid bo‘lsa, qanday tartibda bekor qilinadi?
<b>20.</b>	Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
<b>21.</b>	Prokuror nazorat hujjatlarini sanab bering.
<b>22.</b>	Prokuror nazorat hujjati hisoblangan protest haqida aytib bering.
<b>23.</b>	Prokuror nazorat hujjati hisoblangan taqdimnoma haqida aytib bering.
<b>24.</b>	O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
<b>25.</b>	O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari qaysilar hisoblanadi?
<b>26.</b>	Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
<b>27.</b>	Prokuratura faoliyatining asosiy prinsiplari qaysilar?
<b>28.</b>	Prokuratura organlarining tizimi qanday tuzulmalardan iborat?



<b>29.</b>	O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, prokurorlarning vakolat muddati qancha?
<b>30.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori kim tomonidan lavozimga tayinlanadi va uni tayinlash tartibi qanday?
<b>31.</b>	O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi masalasini aytib bering?
<b>32.</b>	Davlat xavfsizlik xizmati o‘z vakolatlari doirasida qanday asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat olib boradi?
<b>33.</b>	Davlat xavfsizlik xizmati tizimini tushuntirib bering.
<b>34.</b>	Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi kimning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas?
<b>35.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi qanday?
<b>36.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining vazifalariga nimalar kiradi?
<b>37.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining hisobdorligi masalasini yoriting?
<b>38.</b>	Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
<b>39.</b>	Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qanday prinsiplardan iborat?
<b>40.</b>	Ichki ishlar organlarining tizimi qanday tuzilmalardan iborat?
<b>41.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri kim tomonidan va qanday tartibda lavozimga tayinlanadi?
<b>42.</b>	Jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash shartlarini tushuntirib bering.
<b>43.</b>	Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish tartibini tushuntiring.
<b>44.</b>	Ichki ishlar organi xodimini xizmatdan bo‘shatish tartibini tushuntiring.
<b>45.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalarini tushuntirib bering.

<b>46.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tizimini yoriting.
<b>47.</b>	Milliy gvardiyaning bo‘ysunishi va hisobdorligi, shuningdek Milliy gvardiyaning mansabdor shaxslarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibini tushuntirib bering.
<b>48.</b>	Milliy gvardiyaga harbiy xizmatga (xizmatga) qabul qilish tartibini tushuntirib bering.
<b>49.</b>	Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisini (xodimini) bo‘shatish tartibi va asoslarini tushuntiring.
<b>50.</b>	Milliy gvardiyaning huquqlari tushuntirib bering.